

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi

Toshkent moliya instituti



“Budjet hisobi” kafedrası

## **“BUDJET HISOBI” FANIDAN MASALALAR TO’PLAMI**

**Toshkent-2014**

**“Budjet hisobi” fanidan tayyorlangan “Masalalar to’plami” Uslubiy qo’llanma. Mehmonov S.U., Ibragimov K.SH. T.: Toshkent moliya instituti, 2014 yil. 47 bet.**

Ushbu “Budjet hisobi” fanidan tayyorlangan “Masalalar to’plami” bakalavriyatning III va IV-bosqich talabalari uchun mo’ljallangan bo’lib, unda «Budjet hisobi» fanidan moliya organlari, G’aznachilik va uning xududiy bo’linmalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, G’azna ijrosi sharoitida Davlat Budjeti daromadlari hisobi, Budjet xarajatlari kassa ijrosi hisobi, Budjet ssudalari hisobi, Budjetlar o’rtasida o’zaro hisoblashuvlar hisobi, Budjet ijrosi natijalari hisobi va hisobotlari, Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, ularda hisob siyosatining hususiyatlari, daromadlar va xarajatlar smetasi hamda shtatlar jadvalini tuzish, nomoliyaviy aktivlar hisobi, moliyaviy aktivlar hisobi, debitorlar va kreditorlar bilan hisob kitoblar hisobi, moliyaviy natijalar hisobi, Budjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlarining tarkibi va ularni shakllantirish kabi masalalar qamrab olingan bo’lib, talabalar tomonidan mustaqil izlanishlari uchun uslubiy qo’llanma sifatida tavsiya etiladi.

**Tuzuvchilar:**

|               |                                                        |
|---------------|--------------------------------------------------------|
| Mehmonov S -  | TMI, “Budjet hisobi” kafedrası mudiri, i.f.n., dotsent |
| Ibragimov K - | TMI, “Budjet hisobi” kafedrası katta o’qıtuvchısı      |

**Taqrizchilar:**

|              |                                                                                                 |
|--------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Hakimov B -  | TMI, “Moliyaviy tahlil” kafedrası mudiri, i.f.n., dotsent                                       |
| Xolbekov R - | Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, “Buxgalteriya hisobi” kafedrası mudiri, i.f.d., prof. |

Kafedra yig’ilishining 2014 yil 7-yanvardagi 7-sonli bayonnomasi bilan muhokamadan o’tgan va institut Ilmiy-uslubiy Kengashida muhokama etishga tavsiya etilgan.

Uslubiy qo’llanma Toshkent moliya instituti Ilmiy-uslubiy Kengashida muhokama etilgan va nashrga tavsiya qilingan (201\_ yil \_\_ \_\_dagi \_\_-sonli

bayonnoma).

## **Mavzu: Budget hisobining predmeti, metodi va uslubiy asoslari**

### **1 - Topshiriq**

Budget hisobini mohiyatni yoritib bering. Budget hisobi fani predmeti va ob'ektlarini aytib bering. Budget hisobining vazifalarini sharxlab bering. Budget hisobini yuritishni alohida hususiyatlari nimalardan iborat. Budget hisobini uslublari nimalardan iborat.

### **2-Topshiriq**

Budget hisobini yuritishni alohida hususiyatlari bo'lgan Budget tasnifi asosida hisobni tashkil etilishi, Budget ijrosini nazorat qilinishi. Harajatlar smetasi ijrosini nazorat qilinishi. Davlat Budgeti g'azna ijrosi sharoitida hisobni tashkil etilishi va yuritilishi. Hisobda kassa va haqiqiy harajatlarni yuritilishini amaliy misollar keltirib asoslab bering.

### **3-Topshiriq**

Budget hisobining funktsiyalari nimalardan iborat. Budget hisobining uslubiy asoslarini chizma ko'rinishida darajalari bo'yicha aks ettirib bering va tushuntiring. Mamlakatimizda Budget hisobini yuritilishini yunalishlarini ko'rsatib bering. Budget hisobining obektlarini sharxlab bering.

### **4-Topshiriq**

Respublika, Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy Budgetlar ijrosining hisobini mohiyatini tushuntirib bering. Davlat maqsadli jamg'armalari shuningdek boshqa Budgetdan tashqari jamg'armalar Budgeti ijrosining hisobini mohiyatini tushuntirib bering. Budget tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasi ijrosining hisobini mohiyatini tushuntirib bering.

**Mavzu. Moliya organlari, G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning uslubiy asoslari.**

### **6-Topshiriq**

Moliya organlarida, G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida buxgalteriya hisobini yuritishning maqsadi va vazifalarini slaydlar yordamida yoritib bering. Moliya organlarida G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning me'yoriy xuquqiy asoslarini chizma ko'rinishida aks ettirib tushuntirib bering. Budgetlarning g'azna ijrosi bo'yicha operatsiyalarni buxgalteriya yozuvi uchun qaysi buxgalteriya hujjatlari asos bo'ladi. Moliya organlarida G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida buxgalteriya xujjatlari aylanishi grafigini tuzing.

### **7-topshiriq**

Budjetlarning ijrosi bo'yicha operatsiyalarning buxgalteriya hisobi qaysi registrlarida yuritiladi. Moliya organlarida, G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida qo'llaniladigan buxgalteriya schyotlari tasniflang. Moliya organlarida, G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida buxgalteriya hisobini tashkil etishdagi vakolatlari va vazifalari chegaralarini belgilab bering. Moliya organlarida, G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida qo'llaniladigan buxgalteriya schyotlarini tayinlanishi va aktiv, passiv hamda aktiv - passiv schyotlarni sxematik ko'rinishda aks ettiring.

### 8-topshiriq

Moliya organlarining Davlat Budjeti ijrosi bo'yicha buxgalteriya balansi tuzilishi aks ettirib bering. Moliya organi, G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari bosh buxgalterining asosiy vazifalarini ko'rsatib o'ting. Moliya organi, G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari bosh buxgalterining xuquqini ko'rsatib o'ting. Moliya organi, G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari bosh javobgarligini ko'rsatib o'ting.

### 9 - topshiriq

1. Toshkent shaxar Budjetining moliya yili uchun tasdiqlangan summasi quyidagicha bo'lgan:

#### A) Toshkent shaxar maxalliy Budjetining daromadlari;

| Daromadlar nomi                                                                                                                          | Bo'lim | § | Hammasi | shu jumladan choraklar bo'yicha |        |         |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------|---|---------|---------------------------------|--------|---------|---------|
|                                                                                                                                          |        |   |         | I                               | II     | III     | IV      |
| 1                                                                                                                                        | 2      | 3 | 4       | 5                               | 6      | 7       | 8       |
| O'zbekiston Respublikasi xududida ishlab chiqariladigan va realizatsiya qilinadigan maxsulotlarga (ish va xizmatlarga) solinadigan soliq |        |   | 3302000 | 325500                          | 825500 | 1025500 | 1125500 |
| 1- bo'lim bo'yicha jami                                                                                                                  |        |   | 3302000 | 325500                          | 825500 | 1025500 | 1125500 |
| Korxona va tashkilotlardan olinadigan foyda solig'i                                                                                      |        |   | 265000  | 20000                           | 45000  | 95000   | 105000  |
| 2- bo'lim bo'yicha jami                                                                                                                  |        |   | 265000  | 20000                           | 45000  | 95000   | 105000  |
| YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ                                                                                       |        |   | 160000  | 5000                            | 15000  | 65000   | 75000   |
| Uy-joylar, kvartiralar, chorbog' va bog' uylari, garajlar va boshqa                                                                      |        |   | 69600   | 1500                            | 9500   | 28100   | 30500   |

|                                                                                                                                                                                                                                                     |  |  |         |        |        |        |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|--|---------|--------|--------|--------|---------|
| imoratlar, binolar va inshootlarga solinadigan soliq                                                                                                                                                                                                |  |  |         |        |        |        |         |
| 5- bo'lim bo'yicha jami                                                                                                                                                                                                                             |  |  | 69600   | 1500   | 9500   | 28100  | 30500   |
| Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq                                                                                                                                                                                                  |  |  | 3164000 | 400500 | 800500 | 908000 | 1055000 |
| 7- bo'lim bo'yicha jami                                                                                                                                                                                                                             |  |  | 3164000 | 400500 | 800500 | 908000 | 1055000 |
| Bozorlardan tushadigan daromadlar                                                                                                                                                                                                                   |  |  | 199600  | 15400  | 47200  | 73200  | 63800   |
| Alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo qilish xuquqi uchun yig'im                                                                                                                                                                                |  |  | 32000   | 6800   | 7200   | 3300   | 14700   |
| Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'mol qilganlik uchun soliq                                                                                                                                      |  |  | 1165000 | 112000 | 302000 | 326000 | 425000  |
| 10- bo'lim bo'yicha jami                                                                                                                                                                                                                            |  |  | 996600  | 34200  | 256400 | 302500 | 403500  |
| DAVLAT BOJI                                                                                                                                                                                                                                         |  |  |         |        |        |        |         |
| Davlat boji                                                                                                                                                                                                                                         |  |  | 80900   | 12000  | 11000  | 22300  | 35600   |
| 11- bo'lim bo'yicha jami                                                                                                                                                                                                                            |  |  | 80900   | 12000  | 11000  | 22300  | 35600   |
| qoraqalpog'iston Respublikasi Budjetining va maxalliy Budjetlarning boshqa tushumlari                                                                                                                                                               |  |  | 37100   | 2000   | 1000   | 29900  | 4200    |
| Yo'l xarakati qoidalarini buzganlik uchun jarimalar                                                                                                                                                                                                 |  |  | 103600  | 15000  | 5500   | 55600  | 27500   |
| 12- bo'lim bo'yicha jami                                                                                                                                                                                                                            |  |  | 140700  | 17000  | 6500   | 85500  | 31700   |
| Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari (elektrostantsiyalar, kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari, qishloq xo'jaligi korxonalaridan, dexkon xo'jaliklaridan va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan tashqari) |  |  | 95000   | 4000   | 27300  | 46100  | 17600   |
| 13- bo'lim bo'yicha jami                                                                                                                                                                                                                            |  |  | 95000   | 4000   | 27300  | 46100  | 17600   |

|                                                                                                                                                                                                                    |  |  |         |        |         |         |         |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|--|---------|--------|---------|---------|---------|
| Iqtisodiyot barcha tarmoqlari korxonalarining tomonidan to'langan yagona soliq to'lovidan Davlat Budjetiga ajratmalar                                                                                              |  |  | 96400   | 28600  | 2000    | 26000   | 39800   |
| Ulgurji savdo korxonalari (ulgurji savdo soxasidagi kichik korxona va mikrofirmalar, shuningdek dorixona tashkilotlaridan tashqari) tomonidan to'langan yagona soliq to'lovidan Davlat Budjetiga ajratmalar        |  |  | 312700  | 105500 | 38000   | 64000   | 105200  |
| 17- bo'lim bo'yicha jami                                                                                                                                                                                           |  |  | 409100  | 134100 | 40000   | 90000   | 145000  |
| OBODONLASHTIRISH VA IJTIMOIIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH SOLIG'I                                                                                                                                                |  |  | 76400   | 13000  | 17800   | 40200   | 5400    |
| Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan xolda oziq-ovqat va nooziq-ovqat maqsulotlari savdosi soxasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan qat'iy belgilangan soliq |  |  | 181500  | 8000   | 47000   | 68500   | 58000   |
| 22- bo'lim bo'yicha jami                                                                                                                                                                                           |  |  | 181500  | 8000   | 47000   | 68500   | 58000   |
| qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan erlar uchun yuridik shaxslardan undiriladigan er solig'i                                                                                                                         |  |  | 366300  | 9000   | 13400   | 73500   | 270400  |
| qishloq xo'jaligiga oid erlar uchun yuridik shaxslardan undiriladigan yagona er solig'i                                                                                                                            |  |  | 426800  | 13500  | 72300   | 100500  | 240500  |
| 37- bo'lim bo'yicha jami                                                                                                                                                                                           |  |  | 793100  | 22500  | 85700   | 174000  | 510900  |
| D A R O M A D L A R N I N G J A M I                                                                                                                                                                                |  |  | 9733900 | 997300 | 2187200 | 2950700 | 3598700 |

|                                                                                     |  |  |          |         |         |         |         |
|-------------------------------------------------------------------------------------|--|--|----------|---------|---------|---------|---------|
| BOSHQA<br>BUDJETLARDAN<br>OLINGAN<br>MABLAG'LAR                                     |  |  |          |         |         |         |         |
| Ijtimoiy nafaqalar<br>uchun respublika<br>Budjetidan olingan<br>subventsiyalar      |  |  | 3459880  | 695300  | 754900  | 1123360 | 886320  |
| Ish xakiga ajratmalar<br>uchun respublika<br>Budjetidan olingan<br>subventsiyalar   |  |  | 1104220  | 105500  | 425300  | 342940  | 230480  |
| 30- bo'lim bo'yicha<br>jami                                                         |  |  | 4564100  | 800800  | 1180200 | 1466300 | 1116800 |
| Respublika Budjetidan<br>olinadigan ssudalar                                        |  |  |          | 125000  |         |         | -125000 |
| 34- bo'lim bo'yicha<br>jami                                                         |  |  |          |         |         |         |         |
| Aylanma kassa<br>mablag'i hisobidan<br>vaqtihcha mablag' jalb<br>qilish             |  |  |          |         |         |         |         |
| Daromadlar ning<br>hammasi                                                          |  |  | 14298000 | 1798100 | 3367400 | 4417000 | 4715500 |
| B A L A N S                                                                         |  |  | 14298000 | 1798100 | 3367400 | 4417000 | 4715500 |
| MA'LUMOT UCHUN:<br>MAXALLIY<br>BUDJETNING YIL<br>BOSHIGA QOLGAN<br>MABLAG' QOLDIG'I |  |  | 91200    |         |         |         |         |

B) Toshkent shaxar maxalliy Budjetining paragraf va xarajatlar turlari bo'yicha taqsimlangan xarajatlari.

| Xarajatlar nomi                                                             | Bo'<br>lim | hammasi | shu jumladan choraklar bo'yicha |         |         |         |
|-----------------------------------------------------------------------------|------------|---------|---------------------------------|---------|---------|---------|
|                                                                             |            |         | I                               | II      | III     | IV      |
| Iqtisodiyot uchun<br>xarajatlar                                             |            | 1429800 | 192310                          | 336740  | 441700  | 459050  |
| Umumiy ta'lim                                                               |            | 5004300 | 673085                          | 1178590 | 1545950 | 1606675 |
| Madaniyat va<br>ommaviy axborot<br>vositalari                               |            | 571920  | 76924                           | 134696  | 176680  | 183620  |
| Sog'liqni saqlash                                                           |            | 2859600 | 384620                          | 673480  | 883400  | 918100  |
| Ijtimoiy ta'minot                                                           |            | 714900  | 96155                           | 168370  | 220850  | 229525  |
| Fuqarolarni o'zini-<br>o'zi boshqaruv<br>organlarini saqlash<br>xarajatlari |            | 428940  | 57693                           | 101022  | 132510  | 137715  |
| Boshqa sarf-                                                                |            | 428940  | 57693                           | 101022  | 132510  | 137715  |

|                                                              |  |          |         |         |         |         |
|--------------------------------------------------------------|--|----------|---------|---------|---------|---------|
| xarajatlar                                                   |  |          |         |         |         |         |
| Turmush farovonligini oshirish bilan bog'liq xarajatlar      |  | 2859600  | 384620  | 673480  | 883400  | 918100  |
| Jami xarajatlar                                              |  | 14298000 | 1923100 | 3367400 | 4417000 | 4590500 |
| Ma'lumot uchun: rejadagi aylanma kassa mablag'lari miqdori   |  | 86400    |         |         |         |         |
| Mahalliy Budjetlardagi yil boshiga qolgan mablag' qoldiqlari |  | 91200    |         |         |         |         |
| Shu jumladan:                                                |  |          |         |         |         |         |
| Budjet mablag'lari-ning erkin koldig'i                       |  | 4800     |         |         |         |         |
| Aylanma kassa mablag'lari miqdori                            |  | 86400    |         |         |         |         |

2. Toshkent shaxar moliya boshqarmasi va G'aznachilik bo'limi ma'lumotiga ko'ra 1 yanvar xolatiga ko'rsatkichlar quyidagicha bo'lgan:

Budjet pul mablag'lari qoldig'i 3 475 020 so'm, Budjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarni Budjetdan tashqari pul mablag'lari qoldig'i 2 253 500,00 so'm.

Talab etiladi:

- Toshkent shaxar moliya boshqarmasining Budjet ijrosi jarayoni bo'yicha buxgalteriya balansini yil boshiga xolatini belgilab oling;

### TOSHKENT SHAHAR MOLIYA BOSHQARMASI

#### B A L A N S

01.01.20\_\_\_\_ yil xolatiga.

(so'mda)

| AKTIV                       |          |               |       | PASSIV                       |          |               |       |
|-----------------------------|----------|---------------|-------|------------------------------|----------|---------------|-------|
| №                           | Subschet | Subschet nomi | Summa | №                            | Subschet | Subschet nomi | summa |
| 1.                          |          |               |       |                              |          |               |       |
| 2.                          |          |               |       |                              |          |               |       |
| Balans aktivi bo'yicha jami |          |               |       | Balans passivi bo'yicha jami |          |               |       |

- Bosh jurnal kitobi (1-f-shakl) oching va tegishli buxgalteriya schetlarini oching;

| Sana | Memorial order № | Jami summa | 011 |    | 019 |    | 020 |    |    |    |
|------|------------------|------------|-----|----|-----|----|-----|----|----|----|
|      |                  |            | Dt  | Kt | Dt  | Kt | Dt  | Kt | Dt | Kt |
|      | Qoldiq           |            |     |    |     |    |     |    |    |    |

|  |       |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
|--|-------|--|--|--|--|--|--|--|--|--|
|  | 01.01 |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
|--|-------|--|--|--|--|--|--|--|--|--|

- yil boshiga bo'lgan balansidagi schetlar qoldiqlarini bosh jurnalda ochilgan schetlarga tarqating;
- Buxalteriya hisobi registrlarini oching ( belgilangan shakldagi)

### **Mavzu. G'azna ijrosi sharoitida Davlat Budjeti daromadlari hisobi**

#### **10- Topshiriq**

Budjet daromadlarini shakllanish manbaalarini ko'rsating. Toshkent shaxar Budjeti daromadlari shakllanishi manbaalariga sharx bering. Budjet daromadlari tasnifini tavsiflab bering. Budjet tashkilotlarini Budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromadlarni shakllanish manbaalarini aniqlang. Budjet tashkilotlarini Budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha smetalarda daromadlarni rejalanihini aniq misollar bilan ko'rsating.

#### **11- topshiriq.**

Toshkent shaxar Budjeti daromadlari tushumi bo'yicha quyidagicha muomalalar amalga oshirilgan

| №  | Muomalalar mazmuni                                                                                                                                                                                                                       | Asos bo'luvchi xujjat | Dt | Kt | Summa (so'mda) |
|----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------|----|----|----------------|
| 1. | Shaxar Budjetining daromadlariga soliqlar, yig'imlardan tushumlar aks ettirildi                                                                                                                                                          |                       |    |    |                |
| 2. | Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan xolda oziq-ovqat va nooziq-ovqat maqsulotlari savdosi sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan qat'iy belgilangan soliq tushumi aks ettirildi |                       |    |    |                |
| 3. | Budjetga kelib tushgan mablag'lar manbasi aniq ko'rsatilmagan summalar aniqlandi                                                                                                                                                         |                       |    |    |                |
| 4. | Davlat boji tushumi aks ettirildi                                                                                                                                                                                                        |                       |    |    |                |
| 5. | Yo'l xarakati qoidalarini buzganlik uchun jarimalar tushumi aks ettirildi                                                                                                                                                                |                       |    |    |                |
| 6. | Ijtimoiy nafaqalar uchun respublika Budjetidan olingan subventsiyalar                                                                                                                                                                    |                       |    |    |                |
| 7. | Budjetga kelib tushgan mablag'lar manbasi aniq ko'rsatilmagan summalar boshqa Budjet daromadlariga o'tkazildi                                                                                                                            |                       |    |    |                |

Talab etiladi:

1. Muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating;

2. Budjeti daromadlari tushumi bo'yicha muomalalarni summalarini 9-topshiriqda keltirilgan jadvaldan foydalanib mustaqil belgilang;
3. Budjeti daromadlari tushumi bo'yicha muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring;
4. Muomalalarni quyida keltirilgan 274-b-shakldagi memorial orderga tushiring;
5. Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 1-f shakldagi Bosh kitob daftariga o'tkazing

### Memorial order №

Tashkilot: Toshkent shahar G'aznachiligi

Budjet turi: Mahalliy

Hisobot davri: 20 yil

O'lchov birligi: so'm

| № | Muomala mazmuni | Dt<br>subschet | Kt<br>subschet | summa |
|---|-----------------|----------------|----------------|-------|
|   |                 |                |                |       |
|   |                 |                |                |       |

### 12-Topshiriq

Toshkent shahar g'aznachiligida Budjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlarning Budjetdan tashqari mablag'lari tushumi bo'yicha quyidagicha muomalalar amalga oshirilgan

|    | Muomalalar mazmuni                                                                                           | Asos<br>bo'luvchi<br>xujjat | Dt | Kt | Summa<br>(sumda) |
|----|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------|----|----|------------------|
| 1. | Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari tushumi aks ettirildi                          |                             |    |    | 900000           |
| 2. | Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar uchun ota - onalaridan mablag'lar tushumi aks ettirildi |                             |    |    | 659321           |
| 3. | Budjet tashkilotlariga ijara tushumlari aks ettirilganda                                                     |                             |    |    | 95631            |
| 4. | Budjet tashkilotlarida boshqa Budjetdan tashqari mablag'lari tushumi aks ettirildi                           |                             |    |    | 322560           |
| 5. | Budjet tashkilotlariga ortiqcha tushgan boshqa Budjetdan tashqari mablag'lar qaytarilgan                     |                             |    |    | 23650            |
| 6. | Budjet tashkilotlariga xomiylik mablag'lari tushumi aks ettirildi                                            |                             |    |    | 542101           |
| 7  | Budjet tashkilotlar ga foaliyat turiga mos ish va xizmatlar ko'rsatishdan mablag'lar tushumi aks ettirildi.  |                             |    |    | 712321           |

Talab etiladi:

1. Muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating;
2. Budjeti daromadlari tushumi bo'yicha muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring;
3. Muomalalarni 274-v-shakldagi memorial orderga tushiring;
4. Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 1-f shakldagi Bosh kitob daftariga o'tkazing

### 13- topshiriq

Toshkent shaxar Budjeti daromadlari tushumi bo'yicha quyidagicha muomalalar amalga oshirilgan (9-topshiriqda keltirilgan jadval bo'yicha talaba tomonidan mustaqil tuziladi)

| № | Muomalalar mazmuni | Asos bo'luvchi xujjat | Dt | Kt | Summa (so'mda) |
|---|--------------------|-----------------------|----|----|----------------|
|   |                    |                       |    |    |                |
|   |                    |                       |    |    |                |
|   |                    |                       |    |    |                |
|   |                    |                       |    |    |                |
|   |                    |                       |    |    |                |
|   |                    |                       |    |    |                |
|   |                    |                       |    |    |                |

Talab etiladi:

Muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating;  
 Budjeti daromadlari tushumi bo'yicha muomalalarni summalarini 9-topshiriqda keltirilgan jadvaldan foydalanib mustaqil belgilang;  
 Budjeti daromadlari tushumi bo'yicha muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring;  
 Muomalalarni 274-b-shakldagi memorial orderga tushiring;  
 Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 1-f shakldagi Bosh kitob daftariga o'tkazing

### 14- Topshiriq

Toshkent shaxar Budjetida prognoz ko'rsatkichlarini oshirib bajarilishidan tushgan daromadlar bo'yicha quyidagicha muomalalar amalga oshirilgan

| № | Muomalalar mazmuni                                                                                                                      | Asos bo'luvchi xujjat | Dt | Kt | Summa (so'mda) |
|---|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------|----|----|----------------|
|   | Yuqori Budjetning prognoz ko'rsatkichlarini oshirib bajarilishidan tushgan daromadlar summalarini quyi mahalliy Budjetlarga o'tkazishdi |                       |    |    | 1655555        |
|   | Shaxar Budjetiga Respublika Budjetining prognoz ko'rsatkichlarini oshirib bajarilishidan tushgan daromadlar summolari tushumi           |                       |    |    | 9867942        |

|  |                                                                                                                                       |  |  |  |        |
|--|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|--|--|--------|
|  | Yuqori Budjetning prognoz ko'rsatkichlarini oshirib bajarilishidan tushgan daromadlar summalarini quyi mahalliy Budjetlarga o'tkazish |  |  |  | 654311 |
|--|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|--|--|--------|

Talab etiladi:

1. Muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating;
2. Budjeti daromadlari tushumi bo'yicha muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring;
3. Muomalalarni 274-b-shakldagi memorial orderga tushiring;
4. Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 1-f shakldagi Bosh kitob daftariga o'tkazing

### 15-Topshiriq

Toshkent shaxar g'aznachiligida Budjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlarning Budjetdan tashqari mablag'lari tushumi bo'yicha quyidagicha muomalalar amalga oshirilgan (talaba tomonidan mustaqil tuziladi)

| № | Muomalalar mazmuni | Asos bo'luvchi xujjat | Dt | Kt | Summa (sumda) |
|---|--------------------|-----------------------|----|----|---------------|
|   |                    |                       |    |    |               |
|   |                    |                       |    |    |               |
|   |                    |                       |    |    |               |
|   |                    |                       |    |    |               |
|   |                    |                       |    |    |               |
|   |                    |                       |    |    |               |
|   |                    |                       |    |    |               |

Talab etiladi:

1. Muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating;
2. Budjeti daromadlari tushumi bo'yicha muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring;
3. Muomalalarni 274-v-shakldagi memorial orderga tushiring;
4. Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 1-f shakldagi Bosh kitob daftariga o'tkazing

**Mavzu: G'azna ijrosi sharoitida Budjet xarajatlari kassa ijrosi hisobi**

### 16 - Topshiriq

Budjet xarajatlari kassa ijrosi hisobini hususiyatlarini misollar bilan ko'rsatib bering. Budjet xarajatlari tasnifini tarkibiy qismini nimalardan iborat va ularni ahamiyati. Budjet xarajatlarini amalga oshirish tartibini ko'rsating. Budjet xarajatlari hisobini xujjatlashtirishni sxematik tavsiflab bering. Budjet xarajatlari hisobini buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilishi tartibini ko'rsatib bering.

### 17 - Topshiriq

Toshkent shaxar Budjeti xarajatlari bo'yicha quyidagicha muomalalar amalga oshirilgan

| No | Muomalalar mazmuni                                                                                 | Asos bo'luvchi xujjat | Dt | Kt | Summa (so'mda) |
|----|----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------|----|----|----------------|
| 1. | Shaxar Budjetidan iqtisodiyot tarmoqlari uchun kassa xarajatlari amalga oshirildi                  |                       |    |    |                |
| 2. | Shaxar Budjetidan umumta'lim uchun kassa xarajatlari amalga oshirildi                              |                       |    |    |                |
|    | Shaxar Budjetidan sog'liqni saqlash muassasalari uchun kassa xarajatlari amalga oshirildi          |                       |    |    |                |
| 2. | Shaxar Budjetidan quyi Budjetlarga ajratilgan subvensiyalarni o'zaro hisob-kitoblarga olib borildi |                       |    |    |                |
| 3. | Shaxar Budjetidan sog'liqni saqlash muassasalari uchun kassa xarajatlarini ma'lum qismi tiklandi   |                       |    |    |                |
| 4. | Aniqlanmagan tushumlarni shaxar Budjeti kassa xarajatlarini tiklashga olib borildi                 |                       |    |    |                |

Talab etiladi:

Muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating;

Budjeti xarajatlari bo'yicha muomalalar summalarini 9-topshiriqda keltirilgan jadvaldan foydalanib mustaqil belgilang;

Budjeti xarajatlari bo'yicha muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring;

Muomalalarni 274-b-shakldagi memorial orderga tushiring;

Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 1-f shakldagi Bosh kitob daftariga o'tkazing.

### 18 - Topshiriq

Toshkent shaxar Budjeti xarajatlari bo'yicha quyidagicha muomalalar amalga oshirilgan (Muomalalar mazmuni talaba tomonidan 9-topshiriqda keltirilgan jadval asosida mustaqil tuziladi)

| No | Muomalalar mazmuni | Asos bo'luvchi xujjat | Dt | Kt | Summa (so'mda) |
|----|--------------------|-----------------------|----|----|----------------|
|    |                    |                       |    |    |                |
|    |                    |                       |    |    |                |
|    |                    |                       |    |    |                |
|    |                    |                       |    |    |                |
|    |                    |                       |    |    |                |

Talab etiladi:

Muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating;

Budjeti xarajatlari bo'yicha muomalalar summalarini 9-topshiriqda keltirilgan jadvaldan foydalanib mustaqil belgilang;

Budjeti xarajatlari bo'yicha muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring;

Muomalalarni 274-b-shakldagi memorial orderga tushiring;

Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 1-f shakldagi Bosh kitob daftariga o'tkazing.

### 19-Topshiriq

Toshkent shaxar g'aznachiligida Budjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlarning Budjetdan tashqari mablag'lari hisobiga xarajatlar bo'yicha quyidagicha muomalalar amalga oshirilgan

| №  | Muomalalar mazmuni                                                                                                              | Asos bo'luvchi xujjat | Dt | Kt | Summa (sumda) |
|----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------|----|----|---------------|
| 1. | Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha xarajatlar aks ettirildi                                 |                       |    |    | 450000        |
| 2. | Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar uchun ota - onalaridan mablag'lar xarajatlar aks ettirildi                 |                       |    |    | 326315        |
| 3. | Budjet tashkilotlariga ijara tushumlari hisobiga xarajatlar aks ettirilganda                                                    |                       |    |    | 23610         |
| 4. | Budjet tashkilotlarida boshqa Budjetdan tashqari mablag'lari tushumi hisobiga xarajatlar aks ettirildi                          |                       |    |    | 233113        |
| 6. | Budjet tashkilotlariga xomiylik mablag'lari tushumi hisobiga maqsadli xarajatlar amalga oshirildi                               |                       |    |    | 167964        |
| 7  | Budjet tashkilotlar ga foaliyat turiga mos ish va xizmatlar ko'rsatishdan mablag'lar tushumi hisobiga xarajatlar aks ettirildi. |                       |    |    | 423615        |

Talab etiladi:

1. Muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating;

2. Budjeti daromadlari tushumi bo'yicha muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring;

3. Muomalalarni 274-v-shakldagi memorial orderga tushiring;

4. Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 1-f shakldagi Bosh kitob daftariga o'tkazing.

**Mavzu: Budget ssudalari va Budgetlar o'rtasida sodir bo'ladigan  
hisoblashlar hisobi**

**20-Topshiriq**

Budget ssudasini ajratilishi tartibini ko'rsating. Budget ssudasini qaytarilishi tartibini ko'rsating. Budget ssudasini buxgalteriya xujjatlarida aks ettirish tartibi hamda Budget ssudasi bilan bog'liq muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettirish tartibini misollar bilan yoritib bering.

**21-Topshiriq**

Toshkent shaxar g'aznachiligida Budget ssudalari bo'yicha quyidagi muomalalar amalga oshirilgan

| №  | Muomalalar mazmuni                                                       | Asos bo'luvchi xujjat | Dt | Kt | Summa (sumda) |
|----|--------------------------------------------------------------------------|-----------------------|----|----|---------------|
| 1. | Sergeli tumaniga ssuda berildi.                                          |                       |    |    | 236421        |
| 2. | Respublika Budgetidan ssuda olindi.                                      |                       |    |    | 1364983       |
| 3. | Sergeli tumaniga berilgan Budget ssudasi subventsiya hisobiga o'tkazildi |                       |    |    | 236421        |
| 4. | Respublika Budgetidan olingan ssuda qaytarildi.                          |                       |    |    | 1364983       |

Talab etiladi:

1. Muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating;
2. Budget ssudalari bo'yicha muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring;
3. Muomalalarni 274-b-shakldagi memorial orderga tushiring;
4. Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 1-f shakldagi Bosh kitob daftariga o'tkazing.

**22-Topshiriq**

Toshkent shaxar g'aznachiligida Budget ssudalari bo'yicha quyidagi muomalalar amalga oshirilgan. (Muomalalar mazmuni talaba tomonidan mustaqil tuzib chiqiladi)

| № | Muomalalar mazmuni | Asos bo'luvchi xujjat | Dt | Kt | Summa (sumda) |
|---|--------------------|-----------------------|----|----|---------------|
|   |                    |                       |    |    |               |
|   |                    |                       |    |    |               |
|   |                    |                       |    |    |               |
|   |                    |                       |    |    |               |

Talab etiladi:

1. Muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating;

2. Budget ssudalari bo'yicha muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring;
3. Muomalalarni 274-b-shakldagi memorial orderga tushiring;
4. Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 1-f shakldagi Bosh kitob daftariga o'tkazing.

### 23-Topshiriq

Budgetlar o'rtasida o'zaro hisoblashuvlarni yuzaga kelishi xolatlarini belgilang. Budgetlar o'rtasida hisoblashuvlar hisobini hujjatlashtirish tartibini ko'rsating. Budgetlar o'rtasida hisoblashuvlar hisobini buxgalteriya schyotlarida aks ettirilishi va ularni tavsifini aks ettiring.

### 24-Topshiriq

Toshkent shaxar g'aznachiligida Budgetlar o'rtasida hisoblashuvlar bo'yicha quyidagi muomalalar amalga oshirilgan

| № | Muomalalar mazmuni                                                                                       | Asos bo'luvchi xujjat | Dt | Kt | Summa (sumda) |
|---|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------|----|----|---------------|
| 1 | Respublika Budgetiga o'tkazilishi lozim bo'lgan summalar o'zaro hisob-kitoblarga olib borildi            |                       |    |    | 3260000       |
| 2 | Respublika Budgeti oldidagi o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha qarzdorlikni qaytarishga mablag'lar o'tkazish |                       |    |    | 3260000       |
| 3 | Quyi Budgetga berilishi lozim bo'lgan summalarni o'zaro hisob-kitoblarga olib borish                     |                       |    |    | 236000        |
| 4 | Quyi Budgetga berilishi lozim bo'lgan summalarni o'tkazilishi                                            |                       |    |    | 236000        |

Talab etiladi:

1. Muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating;
2. Budgetlar o'rtasida o'zaro hisoblashuvlar hisobi bo'yicha muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring;
3. Muomalalarni 274-b-shakldagi memorial orderga tushiring;
4. Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 1-f shakldagi Bosh kitob daftariga o'tkazing.

### 25-Topshiriq

Toshkent shaxar g'aznachiligida Budgetlar o'rtasida hisoblashuvlar bo'yicha quyidagi muomalalar amalga oshirilgan (Muomalalar mazmuni talaba tomonidan mustaqil belgilanadi)

| №   | Muomalalar mazmuni | Asos bo'luvchi xujjat | Dt | Kt | Summa (sumda) |
|-----|--------------------|-----------------------|----|----|---------------|
| 1   |                    |                       |    |    |               |
| 2   |                    |                       |    |    |               |
| ... |                    |                       |    |    |               |

Talab etiladi:

1. Muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating;
2. Budjetlar o'rtasida o'zaro hisoblashuvlar hisobi bo'yicha muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring;
3. Muomalalarni 274-b-shakldagi memorial orderga tushiring;
4. Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 1-f shakldagi Bosh kitob daftariga o'tkazing.

### **Mavzu: Budjet ijrosi natijalari hisobi va hisobotlari**

#### **26-Topshiriq**

Budjet ijrosi natijalarini shakllantirish tartibini ketma-ketligini ko'rsatib bering. Budjet ijrosi natijalarini shakllantirish bo'yicha amaliy misollar keltiring. Budjet ijrosi natijalarini hisobda aks ettirish ularni buxgalteriya hujjatlari hamda hisob registrlarida aks ettirish tartibini ko'rsating.

#### **27- Topshiriq**

Toshkent shaxar Budjeti ijrosi natijalarini aniqlash bo'yicha quyidagicha muomalalar amalga oshirilgan

| №  | Muomalalar mazmuni                                                                              | Asos bo'luvchi xujjat | Dt | Kt | Summa (so'mda) |
|----|-------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------|----|----|----------------|
| 1. | Hisobot yilida tushgan daromadlar "Budjet ijrosi natijalari" hisobiga o'tkazildi                |                       |    |    |                |
| 2. | Respublika Budjetiga berilgan mablag'larni "Budjet ijrosi natijalari" hisobiga o'tkazildi       |                       |    |    |                |
| 3. | Quyi Budjetga berilgan mablag'larni "Budjet ijrosi natijalari" hisobiga o'tkazish               |                       |    |    |                |
| 4. | Hisobot yilida amalga oshirilgan kassa xarajatlari Budjet ijrosi natijalari hisobiga o'tkazildi |                       |    |    |                |

Talab etiladi:

Muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating;  
Budjet ijrosi natijalarini (summalarini) yuqorida keltirilgan topshiriqlardagi muomalalar ko'rsatkichlaridan foydalanib mustaqil belgilang;  
Budjet ijrosi natijalarini bo'yicha muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring;  
Muomalalarni 274-b-shakldagi memorial orderga tushiring;  
Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 1-f shakldagi Bosh kitob daftariga o'tkazing.

## 28- Topshiriq

Toshkent shaxar Budjeti ijrosi natijalarini aniqlash bo'yicha quyidagicha muomalalar amalga oshirilgan. (Muomalalar mazmuni talaba tomonidan mustaqil tuziladi)

| № | Muomalalar mazmuni | Asos bo'luvchi xujjat | Dt | Kt | Summa (so'mda) |
|---|--------------------|-----------------------|----|----|----------------|
|   |                    |                       |    |    |                |
|   |                    |                       |    |    |                |
|   |                    |                       |    |    |                |
|   |                    |                       |    |    |                |

Talab etiladi:

Muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating;

Budjet ijrosi natijalarini (summalarni) yuqorida keltirilgan topshiriqlardagi muomalalar ko'rsatkichlaridan foydalanib mustaqil belgilang;

Budjet ijrosi natijalari bo'yicha muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring;

Muomalalarni 274-b-shakldagi memorial orderga tushiring;

Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 1-f shakldagi Bosh kitob daftariga o'tkazing.

## 29- Topshiriq

Toshkent shaxar g'aznachiligida Budjet tashkilotlarini Budjetdan tashqari mablag'lari tushumi va ishlatilishi natijalarini aniqlash bo'yicha quyidagicha muomalalar amalga oshirilgan.

| № | Muomalalar mazmuni                                                                                                                                         | Asos bo'luvchi xujjat | Dt | Kt | Summa (so'mda) |
|---|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------|----|----|----------------|
| 1 | Budjetdan mablag' oluvchilarning Budjetdan tashqari boshqa mablag'lari hisobiga tushgan mablag'lar natijalarga o'tkazildi                                  |                       |    |    |                |
| 2 | Hisobot yilida Budjetdan mablag' oluvchilarning Budjetdan tashqari boshqa mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan kassa xarajatlari natijalarga o'tkazildi |                       |    |    |                |

Talab etiladi:

Muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating;

Ko'rsatkichlar (summalarni) yuqorida keltirilgan topshiriqlardagi muomalalar ko'rsatkichlaridan foydalanib mustaqil belgilang;

Budjet tashkilotlarini Budjetdan tashqari mablag'lari tushumi va ishlatilishi natijalarini aniqlash bo'yicha muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring;

Muomalalarni 274-v-shakldagi memorial orderga tushiring;  
Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 1-f shakldagi Bosh kitob daftariga o'tkazing.

### 29-Topshiriq

Budjet ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzish tartibini amaliy misollar bilan ko'rsatib bering. Budjet ijrosiga oid hisobotlar tarkibini ko'rsating. Budjet daromadlari bo'yicha hisobotni tuzish hamda Budjet xarajatlari bo'yicha hisobotni tuzish tartibini ko'rsating.

### 30-Topshiriq

1. Yuqorida keltirilgan topshiriqlar ko'rsatkichlari bo'yicha bosh kitob daftarida schyotlarni qoldig'ini chiqaring.

2. Bosh kitob daftardagi ma'lumotlar asosida Toshkent shaxar Budjeti ijrosi buxgalteriya balansini shakllantiring.

#### **Toshkent shahar Budjetining ijrosi buxgalteriya balansi**

01.01.20\_\_ holatiga  
(ming so'mda)

| AKTIV                       |       |            |       | PASSIV                       |       |            |       |
|-----------------------------|-------|------------|-------|------------------------------|-------|------------|-------|
| №                           | Schet | Schet nomi | Summa | №                            | Schet | Schet nomi | summa |
| 1                           |       |            |       | 1                            |       |            |       |
| 2                           |       |            |       | 2                            |       |            |       |
| Balans aktivi bo'yicha jami |       |            |       | Balans passivi bo'yicha jami |       |            |       |

3. Yuqorida keltirilgan topshiriqlar ko'rsatkichlari bo'yicha Budjet daromadlari bo'yicha quyidagi shaklda hisobotni shakllantiring

#### **Daromadlar haqida hisobot**

| Daromad nomi | Bo'lim | Paragraf | Daromad turi | Reja | Bajarilishi |
|--------------|--------|----------|--------------|------|-------------|
|              |        |          |              |      |             |
|              |        |          |              |      |             |
| Jami         |        |          |              |      |             |

4. Yuqorida keltirilgan topshiriqlar ko'rsatkichlari bo'yicha Budjet xarajatlari bo'yicha quyidagi shaklda hisobotni shakllantiring

#### **Xarajatlar haqida hisobot**

| Xarajat nomi | Bo'lim | Kichik bo'lim | Bo'lim | Aniqlangan reja | Moliyalashtirish | Bajarilishi |         | qabul qilingan yuridik majburiyat | qabul qilingan moliyaviy majburiyat |
|--------------|--------|---------------|--------|-----------------|------------------|-------------|---------|-----------------------------------|-------------------------------------|
|              |        |               |        |                 |                  | kassa       | xaqiqiy |                                   |                                     |
|              |        |               |        |                 |                  |             |         |                                   |                                     |
| Jami         |        |               |        |                 |                  |             |         |                                   |                                     |

**Mavzu: Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, uning nazariy-uslubiy asoslari**

**32-Topshiriq**

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi oldigi qo'yilgan vazifalarni belgilab bering. Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning uslubiy asoslari nimalardan iborat va ularni chizma ko'rinishida aks ettirib bering. Budget tashkilotlarida buxgalteriya xisobini tashkil etishning alohida xususiyatlarini tavsiflang.

**33-Topshiriq**

Budget tashkilotlarida qo'llaniladigan memorial order shakllarini to'ldirilishi tartibini amaliy misollar asosida ko'rsatib bering. Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 308-son shakldagi "Bosh-jurnal kitobi"ga tushirish tartibini ko'rsating. 308-son shakldagi "Bosh-jurnal kitobi"ni tuzilishi va ularda yozuvlarni amalga oshirilishini tushuntiring. Budget tashkilotining daromadlar va xarajatlar smetalarini ijrosi bo'yicha buxgalteriya balansining sxematik kurinishini aks ettiring.

**34-Topshiriq**

2012 yil 1 yanvar xolatiga Toshkent shaxar shayxontoxur tumanida joylashgan 232-maktabning buxgalteriya balansi quyidagicha bo'lgan

**B A L A N S**

2012 yil 1 yanvar holatiga

Tashkilot 232-maktab  
Davriylik: yillik  
O'lchov birligi ming sum  
Vazirlik Moliya vazirligi  
Budget turi maxalliy

| A K T I V                                                                                               | Qator<br>kodi | Yil<br>boshiga | Yil<br>(chorak)<br>oxiriga |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|----------------|----------------------------|
| I BO'LIM. NOMOLIYAVIY AKTIVLAR<br>1-§. Asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli<br>nomoliyaviy aktivlar |               |                |                            |
| Asosiy vositalar:                                                                                       |               |                |                            |
| Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati (010, 011, 012,<br>013, 015, 018, 019-subschyotlar)                | 10            | 257186         |                            |
| Eskirish summasi (020, 021, 022, 023, 025, 029-<br>subschyotlar)                                        | 11            | 39450          |                            |
| Qoldiq (balans) qiymati (010 qator – 011 qator)                                                         | 12            | 217736         |                            |
| Nomoddiy aktivlar (030-subschyot)                                                                       | 20            |                |                            |

|                                                                                                 |     |        |  |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|--------|--|
| Asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli nomoliyaviy aktivlar - jami (012+020 qatorlar)         | 30  | 217736 |  |
| 2-§. Noishlab chiqarish aktivlari                                                               |     |        |  |
| Erni obodonlashtirish (040- subschyot)                                                          | 40  |        |  |
| 3-§. Tovar – moddiy zahiralalar                                                                 |     |        |  |
| Tayyor mahsulot (050- subschyot)                                                                | 50  |        |  |
| Qurilish materiallari (060- subschyot)                                                          | 60  |        |  |
| Oziq-ovqat mahsulotlari (061- subschyot)                                                        | 61  | 0      |  |
| Dori–darmonlar va yarani bog’lash vositalari (062- subschyot)                                   | 62  |        |  |
| Inventar va xo’jalik jixozlari (063- subschyot)                                                 | 63  | 0      |  |
| Yonilg’i, yoqilg’i – moylash materiallari (064- subschyot)                                      | 64  |        |  |
| Mashina va asbob – uskunalarning ehtiyot qismlari (065- subschyot)                              | 65  |        |  |
| Boshqa tovar–moddiy zahiralalar (069- subschyot)                                                | 66  | 0      |  |
| Tovar – moddiy zahiralalar – jami (050+060+061+062+063+064+065+066 qatorlar)                    | 70  | 0      |  |
| 4-§. Nomoliyaviy aktivlarga qo’yilmalar                                                         |     |        |  |
| O’rnatish uchun mo’ljallangan asbob-uskunalar (070- subschyot)                                  | 80  |        |  |
| Tugallanmagan qurilish (071- subschyot)                                                         | 81  |        |  |
| Asosiy vositalarga boshqa xarajatlar (072- subschyot)                                           | 82  |        |  |
| Nomoddiy aktivlarga xarajatlar (080- subschyot)                                                 | 90  |        |  |
| Tovar (ish, xizmat)larga xarajatlar (090- subschyot)                                            | 100 |        |  |
| Tovar-moddiy zahiralarga boshqa xarajatlar ( 091- subschyot)                                    | 101 |        |  |
| Nomoliyaviy aktivlarga qo’yilmalar – jami (080+081+082+090+100+101 qatorlar)                    | 110 | 0      |  |
| I BO’LIM BO’YICHA JAMI (030+040+070+110 qatorlar)                                               | 120 | 217736 |  |
| II BO’LIM. MOLIYAVIY AKTIVLAR                                                                   |     |        |  |
| Tashkilotni saqlash uchun moliyalashtirilgan Budjet mablag’lari (100- subschyot)                | 130 |        |  |
| Boshqa maqsadlar uchun moliyalashtirilgan Budjet mablag’lari (101- subschyot)                   | 131 |        |  |
| To’lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag’lar (110- subschyot)       | 140 |        |  |
| Ta’lim muassasalarida o’qitishning to’lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar (111- subschyot) | 141 |        |  |
| Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg’armasi mablag’lari (112- subschyot)                     | 142 | 199    |  |

|                                                                                                       |     |      |  |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|------|--|
| Boshqa Budjetdan tashqari mablag'lar (113- subschyot)                                                 | 143 |      |  |
| Budjet tashkilotining vaqtincha ixtiyorida bo'ladigan mablag'lar (114- subschyot)                     | 144 |      |  |
| Valyuta hisobvarag'i (115- subschyot)                                                                 | 145 |      |  |
| Boshqa hisobvaraqlardagi pul mablag'lari (119- subschyot)                                             | 146 |      |  |
| Milliy valyutadagi naqd pul mablag'lari (120- subschyot)                                              | 150 |      |  |
| Xorijiy valyutadagi naqd pul mablag'lari (121- subschyot)                                             | 151 |      |  |
| Akkreditivlar (130- subschyot)                                                                        | 160 |      |  |
| Yo'ldagi pul mablag'lari (131- subschyot)                                                             | 161 |      |  |
| Pul ekvivalentlari (132- subschyot)                                                                   | 162 |      |  |
| Depozitga qo'yilgan pul mablag'lari (140- subschyot)                                                  | 170 |      |  |
| II BO'LIM BO'YICHA JAMI<br>(130+131+140+141+142+143+144+145+146+150+151+160+161+162+170 qatorlar)     | 180 | 199  |  |
| III BO'LIM. DEBITORLAR                                                                                |     |      |  |
| Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar (150- subschyot)                         | 190 |      |  |
| Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar (152- subschyot)                                       | 191 |      |  |
| Sug'urta bo'yicha to'lovlar (154- subschyot)                                                          | 192 |      |  |
| To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar (156- subschyot)                                   | 193 |      |  |
| Boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar (159- subschyot)                                               | 194 | 2151 |  |
| Budjetga to'lovlar bo'yicha Budjet bilan hisob-kitoblar (160- subschyot)                              | 200 |      |  |
| Yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha hisob-kitoblar (161- subschyot)                                       | 201 |      |  |
| Shaxsiy jamg'arib boriladigan Pensiya hisobvarag'i badallari bo'yicha hisob-kitoblar (162- subschyot) | 202 |      |  |
| Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bilan hisob-kitoblar (163- subschyot)                          | 203 | 652  |  |
| Boshqa Budjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar (169- subschyot)                          | 204 |      |  |
| Kamomadlarga doir hisob-kitoblar (170- subschyot)                                                     | 210 |      |  |
| Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar (172- subschyot)                                               | 211 |      |  |
| Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar (175- subschyot)                                                | 212 |      |  |

|                                                                                                    |     |        |  |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|--------|--|
| Xodimlar bilan boshqa hisob-kitoblar (179- subschyot)                                              | 213 |        |  |
| Yuqori va quyi tashkilotlar o'rtasidagi boshqa hisob-kitoblar (180- subschyot)                     | 220 |        |  |
| III BO'LIM BO'YICHA JAMI<br>(190+191+192+193+194+200+201+202+203+204+210+211+212+213+220 qatorlar) | 230 | 2803   |  |
| BALANS (120+180+230 qatorlar)                                                                      | 240 | 220738 |  |

|                                                                                                           | Qator<br>kodi | Yil<br>boshiga | Yil<br>(chorak)<br>oxiriga |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|----------------|----------------------------|
| P A S S I V                                                                                               |               |                |                            |
| III BO'LIM. KREDITORLAR                                                                                   |               |                |                            |
| Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar (150- subschyot)                             | 250           |                |                            |
| Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar (152- subschyot)                                           | 251           |                |                            |
| Sug'urta bo'yicha to'lovlar (154- subschyot)                                                              | 252           |                |                            |
| Budjet tashkilotining ixtiyorida vaqtincha bo'ladigan mablag'lar bo'yicha hisob-kitoblar (155- subschyot) | 253           |                |                            |
| To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar (156- subschyot)                                       | 254           |                |                            |
| Boshqa kreditorlar bilan hisob-kitoblar (159- subschyot)                                                  | 255           | 1011           |                            |
| Budjetga to'lovlar bo'yicha Budjet bilan hisob-kitoblar (160- subschyot)                                  | 260           | 2789           |                            |
| Yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha hisob-kitoblar (161- subschyot)                                           | 261           | 6003           |                            |
| Shaxsiy jamg'arib boriladigan Pensiya hisobvarag'i badallari bo'yicha hisob-kitoblar (162- subschyot)     | 262           | 240            |                            |
| Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bilan hisob-kitoblar (163- subschyot)                              | 263           | 1080           |                            |
| Boshqa Budjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar (169- subschyot)                              | 264           |                |                            |
| Xodimlar bilan ijtimoiy nafaqalar bo'yicha hisob-kitoblar (171- subschyot)                                | 270           | 750            |                            |
| Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar (172- subschyot)                                                   | 271           |                |                            |
| Xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar (173- subschyot)                              | 272           | 15107          |                            |
| Stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar (174- subschyot)                                               | 273           |                |                            |
| Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar (175- subschyot)                                                    | 274           |                |                            |

|                                                                                                                                                   |     |       |  |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|-------|--|
| Xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadigan haq bo'yicha hisob-kitoblar (176- subschyot)                                                          | 275 | 776   |  |
| Deponentlangan to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar (177- subschyot)                                                                                 | 276 |       |  |
| Xodimlar bilan boshqa hisob-kitoblar (179- subschyot)                                                                                             | 277 |       |  |
| Yuqori va quyi tashkilotlar o'rtasidagi boshqa hisob-kitoblar (180- subschyot)                                                                    | 280 |       |  |
| III BO'LIM BO'YICHA JAMI<br>(250+251+252+253+254+255+260+261+262+263+264+270+271+272+273+274+ 275+276+277+280 qatorlar)                           | 290 | 27756 |  |
| IV BO'LIM. MOLIVAVIY NATIJALAR                                                                                                                    |     |       |  |
| Budjet mablag'lari bo'yicha xaqiqiy xarajatlar (231- subschyot)                                                                                   | 300 |       |  |
| Budjetdan moliyalashtirish (232- subschyot)                                                                                                       | 301 |       |  |
| Budjet mablag'lari bo'yicha hisobot davriga joriy moliyaviy natija(301-300 qatorlar)                                                              | 302 | 0     |  |
| To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar hisobiga amalga oshirilgan xaqiqiy xarajatlar (241- subschyot)             | 310 |       |  |
| Ta'lim muassasalarida hisoblangan ota-onalarning mablag'lari (242- subschyot)                                                                     | 311 |       |  |
| To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha hisobot davriga joriy moliyaviy natija (311-310 qatorlar)                             | 312 | 0     |  |
| Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan xaqiqiy xarajatlar (251- subschyot)    | 320 |       |  |
| Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha daromadlar (252- subschyot)                                               | 321 |       |  |
| Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar bo'yicha hisobot davriga joriy moliyaviy natija (321-320 qatorlar) | 322 | 0     |  |
| Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan xaqiqiy xarajatlar (261- subschyot)                        | 330 |       |  |
| Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha daromadlar (262- subschyot)                                                   | 331 |       |  |
| Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha hisobot davriga joriy moliyaviy natija (331-330 qatorlar)                     | 332 | 0     |  |
| Boshqa daromadlar bo'yicha xaqiqiy xarajatlar (271- subschyot)                                                                                    | 340 |       |  |
| Boshqa Budjetdan tashqari daromadlar (272- subschyot)                                                                                             | 341 |       |  |

|                                                                                                                          |     |        |  |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|--------|--|
| Inventarizatsiya natijasida ortiqcha chiqqan mol-mulklar (273- subschyot)                                                | 342 |        |  |
| Boshqa daromadlar bo'yicha bo'yicha hisobot davriga joriy moliyaviy natija (341+342-340 qatorlar)                        | 343 | 0      |  |
| Yakuniy moliyaviy natija (351+352+353+354+355+356 qatorlar)                                                              | 350 | 192982 |  |
| Budjet mablag'lari bo'yicha yakuniy moliyaviy natija (280- subschyot)                                                    | 351 | 192282 |  |
| To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha yakuniy moliyaviy natija (281- subschyot)                    | 352 |        |  |
| Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha yakuniy moliyaviy natija (282- subschyot)        | 353 |        |  |
| Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha yakuniy moliyaviy natija (283- subschyot)            | 354 | 700    |  |
| Boshqa daromadlar bo'yicha yakuniy moliyaviy natija (284- subschyot)                                                     | 355 | 0      |  |
| Budjetga va Budjetdan tashqari jamg'armalarga hisoblangan soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha imtiyozlar (285- subschyot) | 356 |        |  |
| IV BO'LIM BO'YICHA JAMI (302+312+322+332+343+350 qatorlar)                                                               | 360 | 192982 |  |
| BALANS (290+360 qatorlar)                                                                                                | 370 | 220738 |  |
| V BO'LIM. BALANS DAN TASHQARI SCHYOTLAR Ijaraga olingan asosiy vositalar (01)                                            | 380 |        |  |
| Mas'ul saqlashga olingan tovar-moddiy qiymmatliklar (02)                                                                 | 381 |        |  |
| Qat'iy hisobot blanklari (04)                                                                                            | 382 |        |  |
| Ishonchsiz debitorlarning qarzlari xarajatga chiqazilishi (05)                                                           | 383 |        |  |
| Markazlashtirilgan ta'minot bo'yicha to'langan moddiy qimmatliklar (06)                                                  | 384 |        |  |
| O'quvchilar va talabalarning qaytarilmagan moddiy qimmatliklar bo'yicha qarzlari (07)                                    | 385 |        |  |
| Ko'chma sport sovrinlari va kuboklari (08)                                                                               | 386 |        |  |
| To'lanmagan yo'llanmalar (09)                                                                                            | 387 |        |  |
| Foydalanishdagi inventar va xo'jalik jixozlari (10)                                                                      | 388 |        |  |
| Xarbiy texnikalarning o'quv predmetlari (11)                                                                             | 389 |        |  |
| Eskirganlarining o'rniga berilgan transport vositalarining extiyot qismlari (12)                                         | 390 |        |  |

Talab etiladi:

- 1.308-son shakldagi “Bosh-jurnal kitobi”ni oching va ularda qo’llaniladigan ishchi schyotlarni belgilab oling.
- 2.Balansdagi subschyotlar qolig’ini 308-son shakldagi “Bosh-jurnal kitobi”ga o’tkazing(bunda 010-019 va 020-029 subschyotlar qoliqlarini mustaqil bo’lib oling.
- 3.308-son shakldagi “Bosh-jurnal kitobi”ga o’tkazilgan qoldiqlar bo’yicha debet va kredit qoldiqlarni jamlash asosida solishtiring.
- 4.Tegishli memorial order shakllarini oching.

**Mavzu. Budjet tashkilotlarida Budjet va Budjetdan tashqari mablag’lar bo’yicha daromadlar va xarajatlar smetalari hamda shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi**

**35-topshiriq**

Xarajatlar smetalari xaqida tushunchalaringizni ayting. Xarajatlar smetasi tarkibiy tuzilishini ko’rsating. Budjet tashkilotlarida smetalarni tuzish bo’yicha me’yoriy xuquqiy asoslarni ko’rsating. Vaqtinchalik xarajatlar smetasi qanday tuziladi. Budjetdan tashqari mablag’lar bo’yicha smetalarni tuzilishi tartibini ko’rsating.

**36-Topshiriq**

Xarajatlar smetasida xarajatlarni hisoblab chiqishda nimalarga amal qilishi kerak. Xarajatlar smetasini ko’rib chiqish va tasdiqlash hamda ro’yxatdan o’tkazish tartibini ko’rsating. Shtatlar jadvali qanday tuziladi. Maktab misolida shtatlar jadvalini shartli ravishda tuzing.

**37-topshiriq**

Toshkent shaxar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yil uchun tasdiqlangan smeta xarajatlari ko’rsatkichlari quyidagicha bo’lgan:

| Ko’rsatgichlar                                                                                                                                    | Toifa | modda va kichik modda | element | qatorlar kodi | Aniqlangan smeta bo’yicha |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|-----------------------|---------|---------------|---------------------------|
| Ish haqi (02)                                                                                                                                     | 41    | 10                    | 000     | 01            | 323488                    |
| Pul shaklidagi ish haqi (03+04)                                                                                                                   | 41    | 11                    | 000     | 02            | 323488                    |
| Asosiy ish haqi                                                                                                                                   | 41    | 11                    | 100     | 03            | 289172                    |
| Ish haqiga ustama va qo’shimcha to’lovlar                                                                                                         | 41    | 11                    | 200     | 04            | 34316                     |
| Umumta’lim, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o’rnak ko’rsatgan xodimlarini rag’batlantirishning Direktor jamg’armasi mablag’lari | 41    | 11                    | 210     | 05            | 34316                     |
| Uy-joy kommunal xizmatlar bo’yicha har oylik kompensatsiya to’lovlari                                                                             | 42    | 99                    | 100     | 06            |                           |

|                                                                                                                                                                     |    |    |     |     |        |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|-----|-----|--------|
| Nafaqalar (08+09+10+11)                                                                                                                                             | 47 | 11 | 100 | 07  | 0      |
| Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqa                                                                                                                           | 47 | 11 | 120 | 08  | X      |
| 1-guruh xarajatlari bo'yicha jami<br>(01+06+07+12+13+14+15)                                                                                                         | X  | X  | X   | 16  | 323488 |
| Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar<br>(18+21)                                                                                                                | 41 | 20 | 000 | 17  | 80156  |
| Ijtimoiy ehtiyojlarga haqiqatda qilinadigan<br>ajratmalar/badallar (19+20)                                                                                          | 41 | 21 | 000 | 18  | 80156  |
| Yagona ijtimoiy to'lov                                                                                                                                              | 41 | 21 | 100 | 19  | 80156  |
| II-guruh xarajatlari bo'yicha jami (17)                                                                                                                             | X  | X  | X   | 22  | 80156  |
| Kommunal xizmatlari                                                                                                                                                 | 42 | 20 | 000 | 49  | 36536  |
| Elektroenergiya                                                                                                                                                     | 42 | 21 | 000 | 50  | 3472   |
| Issiq suv va issiqlik energiyasi                                                                                                                                    | 42 | 23 | 000 | 52  | 29640  |
| Sovuq suv va oqova                                                                                                                                                  | 42 | 24 | 000 | 53  | 3076   |
| Chiqindilarni tozalash, olib chiqib ketish<br>bilan bog'liq xizmatlar hamda energetik va<br>boshqa resurslar (benzin va boshqa<br>YOMMlarni tashqari)ni sotib olish | 42 | 25 | 000 | 54  | 348    |
| Saqlab turish va joriy ta'mirlash                                                                                                                                   | 42 | 30 | 000 | 55  | 3580   |
| Bino                                                                                                                                                                | 42 | 32 | 000 | 57  | 1100   |
| Noturar joy binolari                                                                                                                                                | 42 | 32 | 200 | 59  | 1100   |
| Mashinalar, jihozlar va texnika                                                                                                                                     | 42 | 34 | 000 | 63  | 2480   |
| Boshqa mashinalar, jihozlar, texnika va<br>o'tkazgich qurilmalar                                                                                                    | 42 | 34 | 900 | 65  | 2480   |
| Kompyuter jihozlari, hisoblash va audio-<br>video texnika                                                                                                           | 42 | 34 | 920 | 67  |        |
| Elektr energiya va boshqa kommunal<br>xizmatlarni hisobga olish asboblari                                                                                           | 42 | 34 | 930 | 68  | 2480   |
| Moddiy aylanma vositalar zaxiralariga<br>xarajatlar                                                                                                                 | 42 | 50 | 000 | 84  | 100    |
| Boshqa moddiy aylanma vositalar                                                                                                                                     | 42 | 52 | 000 | 89  | 100    |
| Tovar-moddiy zaxiralar                                                                                                                                              | 42 | 52 | 100 | 90  | 100    |
| Qog'oz xarid qilish uchun xarajatlar                                                                                                                                | 42 | 52 | 120 | 92  | 100    |
| Tovar va xizmatlar sotib olish uchun boshqa<br>xarajatlar                                                                                                           | 42 | 90 | 000 | 103 | 84     |
| Telefon, telekommunikatsiya va axborot<br>xizmatlari                                                                                                                | 42 | 92 | 000 | 105 | 84     |
| Telefon, telegraf va pochta xizmatlari                                                                                                                              | 42 | 92 | 100 | 106 | 84     |
| ASOSIY VOSITALAR BO'YICHA<br>XARAJATLAR                                                                                                                             | 43 | 00 | 000 | 111 | 4400   |
| Asosiy vositalarni sotib olish                                                                                                                                      | 43 | 50 | 000 | 134 | 4400   |
| Mashinalar, jihozlar va texnika                                                                                                                                     | 43 | 54 | 000 | 140 | 4000   |
| Boshqa mashinalar, jihozlar va texnika                                                                                                                              | 43 | 54 | 900 | 142 | 4000   |
| Elektr energiya va boshqa kommunal                                                                                                                                  | 43 | 54 | 930 | 145 | 4000   |

|                                                                                                                                                                                                                         |    |    |     |     |        |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|-----|-----|--------|
| xizmatlarni hisobga olish asboblari                                                                                                                                                                                     |    |    |     |     |        |
| Asosiy vositalar sotib olish bo'yicha boshqa turdagi xarajatlar                                                                                                                                                         | 43 | 55 | 000 | 148 | 400    |
| Etishtiriladigan aktivlar                                                                                                                                                                                               | 43 | 55 | 100 | 149 | 400    |
| IV-guruh xarajatlari bo'yicha jami<br>(41+106+150+172)                                                                                                                                                                  | X  | X  | X   | 189 | 44700  |
| Hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida<br>Budjet tashkilotlari hisob varaqlarida qolgan<br>tejab kolingani (foydalanilmagan) Budjet<br>tashkilotini rivojlantirish jamg'armasiga<br>o'tkazilgan mablag'lar summasi | X  | X  | X   | 190 | X      |
| Xarajatlarning hammasi<br>(16+22+40+186+187)                                                                                                                                                                            | X  | X  | X   | 191 | 448344 |

Talab etiladi:

1. Yuqoridagi ko'rsatkichlarni shakllantiriligi asoslarini ko'rsatib bering.
2. Belgilangan tartibda smeta ilovasini tuzib chiqing.
3. Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida belgilangan shakldagi xarajatlar smetasini va shtatlar jadvalini tuzing.

### 38-topshiriq

Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani 232 maktabda pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatiladi. Shuningdek maktab xududida joylashgan 480 kvm. maydonga ega oshxona ijaraga berilgan. Bundan tashqari maktabga xomiylik mablag'lari 2012 yilda Tekstil korxonasi tomonidan 2000 ming so'm berilishi rejalangan.

Talab etiladi:

Shartli ravishda pullik ta'lim xizmatlari uchun kalkulyatsiyasini tuzing hamda o'quvchilar sonini belgilab tushum miqdorini belgilang;  
Maktabni 2012 yil uchun rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari tushumi va ular hisobiga xarajatlar bo'yicha smeta tuzing.

## Mavzu. Asosiy vosita va nomoddiy aktivlar hisobi

### 39-Topshiriq

Budjet tashkilotlarida asosiy vositalarni hisobda tan olinishi me'zonlarini ko'rsating, amaliy misollar keltiring. Xizmat muddati va qiymatidan qat'i nazar qaysi mulkiy qiymatliklar asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydi. Asosiy vositalar hisobini tashkil etishda buxgalteriya hisobi oldiga qanday vazifalar qo'yiladi. Asosiy vositalarga inventar raqami berilishi tartibini tushintiring.

### 40- Topshiriq

Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda asosiy vositalarni qayta baxolash hamda kirimi bo'yicha quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

| №  | Muomalalar mazmuni                                                                                                                                                   | Dt | Kt | Asos bo'luvchi xujjat | Summa |
|----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|-----------------------|-------|
| 1  | Asosiy vositalarni qayta baxolanishi natijasida ularning boshlang'ich qiymati oshdi                                                                                  |    |    |                       |       |
| 2  | Asosiy vositalarni qayta baxolanishi natijasida ularning eskirish qiymati mos ravishda oshdi                                                                         |    |    |                       |       |
| 3  | Asosiy vositalar sotib olinganda:<br>a) sotib olingan asosiy vositalarning qiymatiga (sotib olish narxi, shuningdek, etkazib berish va boshqa qo'shimcha xarajatlar) |    |    |                       |       |
|    | b) Asosiy vositani dastlabki qiymati bo'yicha kirim qilinishi                                                                                                        |    |    |                       |       |
| 4. | Asosiy vositalar beg'araz olinganda:<br>a) belgilangan tartibda aniqlangan bozor qiymati bo'yicha                                                                    |    |    |                       |       |
|    | b) etkazib berish va boshqa qo'shimcha xarajatlar summasiga (transport hizmatlari ko'rsatildi)                                                                       |    |    |                       |       |
|    | v) asosiy vositani dastlabki qiymati bo'yicha kirim qilinishi                                                                                                        |    |    |                       |       |
| 5  | Inventarlar tovar – moddiy zaxiralar tarkibidan asosiy vositalarga o'tkazilganda:<br>a) xaqiqiy qiymati bo'yicha                                                     |    |    |                       |       |
|    | b) tovar – moddiy zaxiralardan o'tkazilgan asosiy vositani dastlabki qiymati bo'yicha kirim qilindi                                                                  |    |    |                       |       |
| 6. | Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan hisobga olinmagan asosiy vositalarni bozor qiymati bo'yicha kirmga olindi                                                     |    |    |                       |       |

Talab etiladi:

1. Asosiy vositalarni qayta baxolash hamda kirimi bo'yicha muomalalarni summalarini mustaqil (qayta baxolash bo'yicha indekt metodi bo'yicha, sotib olinishi 37-topshiriqda keltirilgan smetada ko'rsatilgan me'yorlar doirasida) belgilang.

2. Asosiy vositalarni qayta baxolash hamda kirimi bo'yicha muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating, xamda hujjatlar blanklarini olib to'ldiring, tegishli memorial orderga o'tkazing.
3. Asosiy vositalarni qayta baxolash hamda kirimi bo'yicha muomalalarni buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

#### 41- Topshiriq

Toshkent shaxar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda asosiy vositalarni eskirishi hisobi bo'yicha quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

| № | Muomalalar mazmuni                                                                                                                                                                           | Dt | Kt | Asos bo'luvchi xujjat | Summa |
|---|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|-----------------------|-------|
|   | Asosiy vositalarga eskirish hisoblanishi (har oyda)                                                                                                                                          |    |    |                       |       |
|   | Boshqa tashkilotlardan beg'araz olingan va avval foydalanishda bo'lgan asosiy vositalar-inventar ob'ektlar kelib tushganda:<br>a) dastlabki (tiklanish) qiymatidan eskirishini ayirgan holda |    |    |                       |       |
|   | b) eskirish summasiga                                                                                                                                                                        |    |    |                       |       |
|   | Qayta baholash natijasida asosiy vositani eskirish summasini oshishi                                                                                                                         |    |    |                       |       |

Talab etiladi:

1. Asosiy vositalarni eskirishi hisobi bo'yicha muomalalarni summalarini mustaqil (eskirish hisoblash me'yorlari asosida ) belgilang.
2. Asosiy vositalarni eskirishi hisobi bo'yicha muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating, xamda hujjatlar blanklarini olib to'ldiring, tegishli memorial orderga o'tkazing.
3. Asosiy vositalarni eskirishi hisobi bo'yicha muomalalarni buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

#### 42- Topshiriq

Toshkent shaxar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda asosiy vositalarni hisobdan chiqarilishi bo'yicha quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

| № | Muomalalar mazmuni                                                                                                                | Dt | Kt | Asos bo'luvchi xujjat | Summa |
|---|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|-----------------------|-------|
| 1 | Tugatilishi munosabati bilan asosiy vositalarni hisobdan chiqarilishi:<br>a) hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi |    |    |                       |       |
|   | b) qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi                                                                                         |    |    |                       |       |
|   | v) vsosiy vositalarni tugatilishi                                                                                                 |    |    |                       |       |

|   |                                                                                                                                                                                  |  |  |  |  |
|---|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|--|--|--|
|   | munosabati bilan keyinchalik foydalanishga yaroqli bo'lgan tovar-moddiy zahiralarni kirim qilinishi:<br>- qoldiq qiymati doirasida;                                              |  |  |  |  |
